

MA'NAVIY VA IQTISODIY MUNOSABATLARI TIZIMIDA MEHNATNING O'RNI

Avazova Xushro'ybibi Kamoltdin qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi"
yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotasiya: Ushbu maqola ma'naviy va iqtisodiy munosabatlar va shu munosabatlar orqali zamonaviy davrda mehnatning o'rni borligini, iqtisodiy munosabatlar ma'naviy ongimiz orqali boshqarilishi hamda ma'naviy ongning muhimligiga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat va iqtisodiyot, ma'naviyat va iqtisodiyot munosabatlari, ma'naviyat va iqtisodiyotning o'zaro ta'siri, G'arb ilm-fani, Marks va Veber xulosalari, mehnat, axloq, ishlab chiqarish, ishlab chiqarish munosabatlari, bozor iqtisodiyoti, raqobat.

Ma'naviy va iqtisodiy munosabatlar, o'zaro ta'siri masalasida G'arb ilm-fanida ikki xil qarama-qarshi qarash qaror topgan:

1. marksistik qarashlar ya'ni tarixni materialistik tushunishga binoan, ijtimoiy hayotda iqtisodiyot hal qiluvchi rol o'ynaydi, ya'ni ma'naviy madaniyat iqtisodiyotga aks ta'sir, ayrim hollarda jiddiy aks ta'sir ko'rsatadi, deb tan oladi, lekin baribir ma'naviyatga ikkilamchi hodisa - iqtisodiy munosabatlarning hosilasidir;

2. ma'naviyat jamiyat hayotida, jumladan, mehnatga muayyan munosabatlar shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi, aniqroq aytilsa, e'tiqod, diniy-axloqiy me'yorlar va ideallar iqtisodiyot rivojlanishini belgilagan.

Iqtisodiyot ma'naviyat rivojlanishi uchun moddiy shartsharoitlar yaratadi va iqtisodiyot ehtiyojlari, talablari ma'naviyatga nisbatan "buyurtmachi" vazifasini o'taydi.

Masalan, yangi texnologiyalar yaratish, mehnat qurollarini takomillashtirish va shu kabilar ilm-fanni, texnik ijodkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ishlab chiqarish jarayonining murakkablashuviga, ilm talabligining oshishiga yarasha ishchi va mutaxassislarda yangi mehnat ko'nikmalari hosil bo'lishini, ularning malakasi muttasil o'sib borishini taqozo etadi.

Bu esa jamiyatda kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash, umuman, tarbiya va ta'lim tizimi rivojlanishiga, ma'naviypsixologik muhit o'zgarishiga, ishlab chiqarishda va turmushda ratsionalizatorlik, ixtirochilik, texnik ijodkorlikka moyillik kuchayishiga ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, turli tovarlarni, mahsulotlarni va xizmat turlarini xaridorlarga taklif qilish ehtiyoji har xil ko'rgazmalar, shou tomoshalar, konkurslar, lotoreyalar va, nihoyat, reklama-axborot industriyasini vujudga keltirdi.

O'z navbatida, ma'naviyatning o'sishi, ilmiy-texnika kashfiyotlari, aholi bilimlarining va malakasining oshishi, iqtisodiy tafakkurining o'zgarishi, yuksak amallar va ijtimoiy marralarni ko'zlash, yangiliklarga intilish iqtisodiyotni rivojlantiradi.

Ammo iqtisodiyot va ma'naviyat o'rtasida doimiy ravishda mavjud bo'lgan ziddiyatlar ham bor, ular davlat siyosatida hisobga olinishi lozim, aks holda, u kutilgan samarani bermaydi.

O'z-o'zidan, ma'lumki, mamlakatimizning bundan keyingi rivojlanishida ham iqtisodiyot va ma'naviyat munosabatlari, ularning o'zaro aloqadorligi va bir-biriga ta'siri masalasi to'g'ri hal qilinmog'i lozim.

Foyda olish iqtisodiyotning tor xususiy maqsadidir, ammo uning asosiy ijtimoiy maqsadi odamlarning moddiy ehtiyojlarini qondirish, ma'naviy ehtiyojlari qondirilishi uchun sharoit yaratishdir. Iqtisodiyotning ijtimoiy vazifasi - inson uchun xizmat qilishi lozimligini esa jamiyatga ma'naviyat eslatib turadi.

Taraqqiyot modelida faqat iqtisodiyotga e'tibor berilsa, jamiyatni uyg'un rivojlantirish, ayniqsa, ma'naviy madaniyatni yuksaltirish, odamlar o'rtasidagi munosabatlarni insonparvarlik va axloqiylik asosida qurish qiyin bo'ladi, ma'naviyatga ustunlik berilsa, unda iqtisodiy qonunlarga bepisand qarash, iqtisodiyotning mafkuraga bo'ysunib qolish xavfi tug'iladi.

Ma'naviyat va iqtisodiyotning o'zaro ta'siri to'g'risida Marks va Veber xulosalari mavjud. U zamonaviy kapitalistik xo'jalik hech qanday diniy ta'limotning yordamiga muhtoj emasligini, alohida ta'kidlaydi. E'tiqodni esa aqlning amaliy ishiga - mehnat aylantiradi.

Mehnat bilan axloq tutashmasa, iqtisodiy munosabatlarda ma'naviyat masalalari, xususan, insonparvarlik talablari va me'yorlari yetarlicha hisobga olinmasa, texnokratik qarashlar ustunlik qilsa, ishlab chiqarish o'sgani bilan, insoniy munosabatlar tanazzulga uchraydi, begonalashish kuchayadi va bu ijtimoiy tanazzulga olib kelishi mumkin.

Iqtisodiy o'sish bo'lmasa, xalq turmush farovonligi yuksalmasa, ma'naviyatning ko'p sohalari rivojlanmaydi: xalq ta'limi, san'at, ommaviy axborot vositalari, matbaachilik, ilm-fanning moddiy bazasi nochor ahvolga tushib qoladi, jamiyatning ijodiy izlanishlari susayadi va turli shakllardagi mafkuraviy murosasizlik, mutaassiblik tarqalishi uchun imkoniyatlar paydo bo'ladi.

Bu, o'z navbatida, iqtisodiyot rivojlanishi uchun qo'shimcha qiyinchiliklar tug'diradi, chunki iqtisodiyotning yangi texnologiyalarga, yangi g'oyalarga bo'lgan ehtiyojlari yetarlicha qondirilmaydi. Iqtisodiy tafakkur davr talabidan ortda qola boshlaydi. Insonparvarlik, halollik yetarlicha hisobga olinmagan joyda ish beruvchi bilan ishga yollanuvchi o'rtasida ijtimoiy sheriklik emas, qarama-qarshilik vujudga keladi. Iqtisodiy o'sishning ma'naviyat sohalari rivojiga ta'siri. Ma'naviyatning iqtisodiyotga ta'siri, yuqorida ta'kidlanganidek, birinchi galda jamiyatda mehnatga munosabat qandayligida namoyon bo'ladi.

Mehnat bozori iqtisodiyotdagi o'zgarishlar tufayli nisbatan tezroq shakllanadi, ammo aholining psixologiyasi, mehnat bozoriga, raqobatga munosabati, hatto, kasb malakasi ancha sekin o'zgarib, ob'ektiv o'zgarishlardan biroz ortda qoladi. Demak, imkoniyatlarimizni to'laroq ro'yobga chiqarish, iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlarini ta'minlash uchun ta'lim-tarbiya va ma'naviy-ma'rifiy ishlarda mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirish, yoshlar orasida kasb tanlashga e'tiborni kuchaytirish bilan bir qatorda, mehnat bozori talablariga moslanuvchanlikni tarbiyalash lozim.

Shu bois yoshlar o'rtasida kasbga yo'naltirishni tashkil etish tubdan yaxshilanishi kerak. Mustaqillik sharoitida biz mehnatga butunlay yangicha munosabatni shakllantirishimiz lozim, ya'ni inson asosiy ishlab chiqaruvchi kuch, har qanday ijtimoiy faoliyatning sub'ekti o'laroq taraqqiyot modelining asosiy ijodkori, harakatlantiruvchi kuchidir.

Biz dunyoqarashimizda baholar, qadriyatlar mezonida ijodga, mehnatga yangi munosabatni shakllantirsak, boqimandalikni va to'kinchilikni inkor qilsak, shaxsning ijodiy intilishlari va tadbirkorligini rag'batlantirishni, shaxs bilan hisoblashishni o'rgansak, jamiyatning har bir a'zosi faqat mehnat orqaligina o'zligini, o'z imkoniyatlarini anaglab talab qila olishiga amin bo'lsa, iqtisodiy salohiyatimiz yanada ortadi.

Mehnatga yangicha munosabatni shakllantirish uchun uni faqat munosib taqdirlashning o'zi yetarli emas, shuningdek, yangicha dunyoqarashni qaror toptirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023 yil. (tegishli moddalar).
2. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1 jild. – T.:O'zbekiston, 2018 yil. 137- 151; betlar.
3. Shavkat Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: 2018 y. 176-221 betlar.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008 yil